

Xurshid XUJAYEV

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRI VA MAZKUR JARAYONDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI

Annotatsiya: Mazkur maqola qo'shilgan qiymat zanjiri va mazkur jarayonda xorijiy investitsiyalarning rolini o'rganishga bag'ishlangan. Mazkur mavzu bo'yicha turli xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar tadqiq qilinib, turli ilmiy yondashuvlar o'rganilgan. Global qo'shilgan qiymat zanjiri o'lchovlarining ko'rsatkichlari, xorijiy investitsiyalar va global qo'shilgan qiymat zanjirining o'zaro ijobiy ta'sirlari hamda global qiymat zanjirining keyingi avlodini shakllantiruvchi asosiy yo'nalishlar tadqiq qilingan. Amalga oshirilgan tahlillar asosida bir qator xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: qo'shilgan qiymat, qo'shilgan qiymat zanjiri, investitsiya, xorijiy investitsiya, moliyalashtirish, qo'shilgan qiymatni oshirish.

ADDED VALUE CHAIN AND THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENT IN THIS PROCESS

Abstract: This article is devoted to the study of the value chain and the role of foreign investment in this process. Various foreign and domestic scientific literature on this topic was studied, and various scientific approaches were studied. The indicators of the global value chain, the positive mutual effects of foreign investment and the global value chain, and the main directions that shape the next generation of the global value chain were studied. Based on the analysis conducted, a number of conclusions were formed.

Keywords: value added, value chain, investment, foreign investment, financing, increasing value added.

Kirish

Bugungi xalqaro globallashuv sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini oshirish lozim, balki mazkur jarayonlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun jozibador investitsion muhit ham shakllantirilishi lozim. Mazkur jarayon jalb qilingan xorijiy investitsiya mablag'laridan samarali foydalanishga va jalb qilingan kapital asosida qo'shimcha qiymat yaratishga erishish mumkin. Aynan xorijiy investitsiyalar qo'shilgan qiymatni oshirish jarayonida muhim omil bo'lib, ular orqali zamonaviy texnologiyalar, ilg'or boshqaruv tajribasi va innovatsion ishlab chiqarish usullari

iqtisodiyotga kirib keladi. Xususan, chet el kapitali ishtirokida tashkil etilgan korxonalar mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish orqali milliy ishlab chiqarishning xalqaro bozorlarga integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalar hisobiga yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilishi, mavjud korxonalarning modernizatsiya qilinishi hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarining kengayishi qo'shilgan qiymat zanjirini chuqurlashtiradi. Investitsion loyihalar doirasida infratuzilmaning rivojlanishi, transport va energetika tizimlarining modernizatsiya qilinishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, yakuniy mahsulot qiymatini oshiradi. Shuningdek, chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar orqali xalqaro sifat standartlarining joriy etilishi mahsulotlarning global bozorda raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shu sababli qo'shilgan qiymat zanjiri va mazkur jarayonda xorijiy investitsiyalarning rolini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Ch.Li fikricha, "murakkab bozor sharoitida daromadni maksimal darajada oshirishga intilayotgan investorlar uchun qo'shilgan qiymatga ega investitsiyalar jozibador variant sifatida paydo bo'lmoqda. Birinchidan, daromadlilikning keskin pasayishi investorlarni yuqori daromad olish imkoniyatini taqdim etadigan yuqori riskli faoliyatni boshlashga undamoqda. Shuningdek, yangi aktivlarga uzoq vaqt davomida yetarlicha investitsiya qilinmasligi ishtirokchilarni jalb qila oladigan va saqlab qoladigan yuqori sifatli, barqaror bozorlarga bo'lgan talabning ortishi olib kelmoqda" [1].

B. Hoekman "qo'shilgan qiymat zanjirida "kengroq yondashuvni joriy etishning birinchi qadami oltitaga yaqin ta'minot zanjirini tanlash va tegishli mamlakatlarning bizneslari, regulyatorlari va savdo rasmiylarini o'z faoliyatiga eng ko'p zarar yetkazadigan siyosat cheklovlarini aniqlash uchun birlashtirgan mexanizm sifatida ta'minot zanjirini yaratish zarur" [2] ekanligini qayd etgan.

V. Amendolagine va boshqalar "rivojlanayotgan mamlakatlarda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy sabablaridan biri xorijiy korxonalarga tegishli bo'lgan yuqori texnologiyalardan kelib chiqadigan va mahalliy rivojlanayotgan mamlakatlar korxonalariga uzatilishi mumkin bo'lgan ta'sirlardan foydalanish imkoniyatidir. Global qo'shilgan qiymat zanjirlarida intensiv ishtirok etish mahalliy korxonalarni xalqaro bozorlar talablariga moslashishga yordam beradi. Mazkur jarayon global yetakchilardan mahalliy yetkazib beruvchilarga qiymat zanjiri ichidagi bilim va texnologiyalarni olib kelish orqali tashkil etiladi. Bundan tashqari, Global qo'shilgan qiymat zanjirlarida yuqori oqimdagi ishtirok xorijiy investorlar sotib olishi mumkin bo'lgan oraliq materiallar ishlab chiqarishda mahalliy ixtisoslashuvni anglatadi. Aksincha, rivojlanayotgan

mamlakatlarda quyi oqimdagi ixtisoslashuv ko‘pincha import qilingan materiallarni yig‘ish bosqichida konsentratsiyaga mos keladi, ya’ni asosan arzon mahalliy ishchi kuchidan foydalanadi va oraliq materiallarning mahalliy ta’minotiga bevosita ta’sir ko‘rsatmaydi” [3], deya fikr bildirgan.

M. Mano boshchiligidagi mualliflar jamoasi qayd etishicha “ishlab chiqarish sektori ish o‘rinlarini yaratish, innovatsiyalar va eksportni rag‘batlantirish orqali iqtisodiy o‘shish va tarkibiy o‘zgarishlarni rag‘batlantiradi. Ishlab chiqarishni rivojlantirmasdan yuqori daromadli maqomga erishish va uni saqlab qolish qiyin. Mavjud tadqiqotlar Janubiy Afrika kabi rivojlanayotgan bozorlarda xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va ishlab chiqarish qo‘shilgan qiymati o‘rtasidagi bog‘liqlikni e’tibordan chetda qoldirgan. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar zarur kapitalni jalb qilish va texnologiyalarni mahalliy korxonalarga olib kirish orqali ishlab chiqarish imkoniyatlarini rivojlantiradi. Bu esa mahalliy korxonalarga zamonaviy ishlab chiqarish texnikalari va samarali boshqaruv amaliyotlarini qo‘llash, unumdorlikni oshirish hamda ishlab chiqarishdagi qo‘shimcha qiymatni oshirish imkonini beradi” [4].

M. Gatto va H. Delgado “to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning strategik jozibadorligi sanoatning global miqyosda qayta tiklanishini aks ettiradi. Bu siyosatlar soliq imtiyozlari, subsidiyalar yoki tariflarning pasayishi kabi rag‘batlantirishlarni, shuningdek, mahalliy kontent talablari yoki import to‘siqlari kabi cheklovlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Ikkinchisi ko‘pincha transmilliy kompaniyalarni ushbu cheklovlarni chetlab o‘tish uchun mahalliy ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishga undaydi. Qo‘shilgan qiymat statistikasining mavjudligi eksport yoki yakuniy talabni ikki komponentga ajratish orqali tahlil qilish imkonini beradi: mahalliy resurslardan olinadigan qo‘shimcha qiymat va tashqi manbalardan olinadigan qo‘shimcha qiymat. Qo‘shimcha qiymat ichki iste’mol va eksport uchun xorijiy resurslarga bog‘liqlikni aks ettiradi hamda mamlakat yoki sektorning xorijiy iste’mol va eksportga qo‘shgan hissasini aks ettiradi” [5] degan ilmiy qarashlarni ilgari surgan.

“Rivojlanayotgan mamlakatlarda eksport samaradorligini oshirishda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning muhim roli qayd etiladi. Empirik tadqiqotlar texnologiyaning ta’siri, unumdorlikning oshishi va global qiymat zanjirlariga integratsiya kabi mexanizmlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning eksportga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan asosiy kanallari sifatida ta’kidlaydi” [6].

A.Vaxabov “qo‘shilgan qiymat zanjiri mahsulotni vujudga kelish davridan uning pirovard iste’molchilargacha ishlab chiqarishning hamma bosqichlarini ishlab chiqish va dizayn, xom-ashyo va oraliq komponentlarni yetkazib berishni ta’minlash, marketing va sotishni tashkil etish, sotuvdan keyingi servis xizmatini

ta'minlashni o'z ichiga oladi. Global qo'shilgan qiymat zanjiri holatida yuqoridagi hamma bosqichlar geografik jihatdan turli mamlakatlar va mintaqalarda joylashgan ko'p sonli yetkazib beruvchi va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida taqsimlangan. Kompaniyalar yaxlit, butun mahsulotni emas, balki uning ayrim qismlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Korxonalar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro barqaror suratlarda muntazam aloqalar olib borishni taqozo etadi" [7], deb fikr bildirgan.

"Markaziy Osiyo iqtisodiyotiga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar eksport ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, O'zbekiston kabi resurslarga boy mamlakatlarda esa nisbatan kuchliroq ta'sir kuzatiladi. Ushbu iqtisodiyotlarda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosiy tovarlardan yuqori qo'shimcha qiymatga ega tovarlar va xizmatlarga bosqichma-bosqich o'tishni osonlashtirish orqali eksportni diversifikatsiya qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatladi" [8].

Yuqoridagi iqtisodchi olimlar hamda tadqiqotchilarning ilmiy fikrlarini o'rganish asosida aytish mumkinki, iqtisodiyotda qo'shilgan qiymatni oshirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati yuqori bo'lib, qo'shilgan qiymat zanjirining har bir bosqichidagi jarayonlarni moliyalashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi


Mazkur maqolada qo'shilgan qiymat zanjiri va mazkur jarayonda xorijiy investitsiyalarning rolini o'rganishda analiz, sintez, ilmiy abstraksiyalash, ilmiy mushohada, induksiya, deduksiya kabi tadqiqot usullari o'rganilgan.

Tahlil va natijalar

Global qo'shilgan qiymat zanjirlari jahon iqtisodiyotining asosiy tayanchi bo'lib qolmoqda hamda iqtisodiy, texnologik va geosiyosiy o'zgarishlar ta'sirida o'z tuzilmasi hamda faoliyat yo'nalishini bosqichma-bosqich moslashtirib bormoqda. XXI asr davomida oraliq mahsulotlar va xizmatlar savdosi deyarli barcha mamlakatlarni ishlab chiqarish munosabatlarning murakkab va zich tarmog'iga bog'lab qo'ydi. Mazkur ishlab chiqarish tarmoqlari 2008-2009-yillardagi global moliyaviy inqiroz, COVID-19 pandemiyasi hamda so'nggi yillardagi geosiyosiy va iqlim bilan bog'liq o'zgarishlarga qaramasdan yuqori darajada barqarorlikni saqlab qolganligini kuzatishimiz mumkin. Qo'shilgan qiymat asosida hisob-kitoblarni amalga oshiradigan bo'lsak, transchegaraviy ishlab chiqarish jarayonlari hanuzgacha jahon savdosining deyarli yarmiga to'g'ri kelmoqda va Osiyo taraqqiyot bankining so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, oraliq mahsulotlar savdosining nominal hajmi rekord darajaga yetgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar globallashtirish jarayoni to'xtayotganidan emas, balki qayta shakllanayotganini ko'rsatmoqda, ya'ni ta'minot zanjirlari mintaqalashtirish, raqamlashtirish va diversifikatsiya orqali yangi

sharoitlarga moslashmoqda. Ushbu moslashuv jarayonlari uchta asosiy yo'nalish atrofida shakllanmoqda va bular turli inqirozlarga nisbatan barqarorlikni kuchaytirish, mamlakatlar va korxonalar o'rtasida inklyuzivlikni kengaytirish hamda texnologik va siyosiy innovatsiyalar orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashdan iborat. Mazkur jarayonlarning aksariyati bevosita moliyalashtirish hamda qo'shimcha kapital jalb qilishni talab etadi va mazkur holatda xorijiy investitsiyalar muhim rol o'ynamoqda.

Global qo'shilgan qiymat zanjiri tahlil qiladigan bo'lsak, keltirilgan global qo'shilgan qiymat zanjiri o'lchovlari mamlakatlarning xalqaro ishlab chiqarish tizimidagi ishtirok darajasini har tomonlama baholash imkonini beradi (1-rasm).




1-rasm. Global qo'shilgan qiymat zanjiri o'lchovlarining ko'rsatkichlari [9]

Izoh: DVX = bilvosita qo'shilgan qiymat (boshqa mamlakat eksportida qo'shilgan ichki qiymat); FVA = xorijiy qo'shilgan qiymat.

Ortga bog'langan ishtirok ko'rsatkichi eksport mahsulotlarini ishlab chiqarishda xorijiy resurslar va komponentlarga qanchalik tayanilishini aks ettirib, iqtisodiyotning tashqi resurslarga bog'liqlik darajasini ifodalaydi. Ushbu jarayon eksport tarkibidagi xorijiy qo'shilgan qiymat ulushi, ya'ni FVA orqali aniqlanadi va

ishlab chiqarishning xalqaro integratsiya darajasini ko'rsatadi. Oldinga bog'langan ishtirok esa mamlakatda yaratilgan mahsulot va xizmatlarning boshqa davlatlar eksportida oraliq mahsulot sifatida qo'llanilishini ifodalab, milliy iqtisodiyotning global zanjirdagi strategik o'rnini belgilaydi. Bu ko'rsatkich asosan bilvosita qo'shilgan qiymat, ya'ni DVX orqali baholanadi va milliy mahsulotlarning xalqaro qiymat yaratishdagi hissasini aks ettiradi. Umumiy global qo'shilgan qiymat zanjiri ishtiroki FVA va DVX yig'indisi asosida hisoblanib, mamlakatning global ishlab chiqarish tizimidagi umumiy integratsiya darajasini ifodalaydi. Mazkur ko'rsatkich tashqi savdo tuzilmasining qanchalik murakkab va ko'p bosqichli ekanligini aniqlashga xizmat qiladi. Global qo'shilgan qiymat zanjiri intensivligi esa umumiy ishtirokning eksport va import hajmiga nisbati orqali aniqlanib, iqtisodiyotning xalqaro savdoga qanchalik chuqur bog'langanini ko'rsatadi. Ushbu indikator mamlakatning global qiymat zanjirlaridan foydalanish samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jadvalda berilgan ko'rsatkichlar asosida davlatlarning ishlab chiqarish salohiyati, texnologik rivojlanish darajasi va tashqi iqtisodiy raqobatbardoshligi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Natijada, mazkur o'lchovlar milliy iqtisodiy siyosatni shakllantirish, eksport strategiyasini takomillashtirish va qo'shilgan qiymatni oshirishga qaratilgan islohotlarni belgilashda muhim nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi (1-rasm).

2-rasmda xorijiy investitsiyalar va global qo'shilgan qiymat zanjirining o'zaro ijobiy ta'sirlari tizimli ravishda aks ettirilgan. Unda savdo oqimlari yetakchi kompaniyalarning ishlab chiqarish jarayonlaridagi ishtirok xarajatlarini kamaytirish orqali xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirishi ko'rsatilgan. Mazkur jarayon investorlarga qulay iqtisodiy muhit yaratib, mamlakatga kirib kelayotgan kapital hajmini oshirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok xarajatlarining pasayishi va faoliyatni boshqa joyga ko'chirish xarajatlarining yuqoriligi yetakchi kompaniyalarni mahalliy bozorga bog'lab qo'yadi. Natijada, bu kompaniyalar ishtirok etayotgan qo'shilgan qiymat zanjirida boshqa korxonalar ham mamlakatda faoliyat yuritishga intiladi. Bunday holat "ommaviy ergashish" effektini yuzaga keltirib, xorijiy investitsiyalar uchun yanada qulay sharoit yaratadi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar orqali bilim va texnologiyalarning mamlakat ichida keng tarqalishi ta'minlanadi. Texnologik transfer va boshqaruv tajribasining oshishi ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Aglomeratsiya samarasi natijasida korxonalar o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanib, ishlab chiqarish zanjirlarining uzluksizligi ta'minlanadi. Bu jarayon mamlakatning global qo'shilgan qiymat zanjirlariga yanada chuqurroq integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Natijada xorijiy investitsiyalar va global qiymat zanjirlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanishning muhim omiliga aylanadi.



2-rasm. Xorijiy investitsiyalar va global qo'shilgan qiymat zanjirining o'zaro ijobiy ta'sirlari [10]

2023-yilgi Xalqaro Iqtisodiy Forumda qo'shilgan qiymat zanjiri bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalari e'lon qililib, so'rovnomada qo'shilgan qiymat zanjirining keyingi avlodini shakllantiruvchi beshta asosiy yo'nalishlar aniqlangan [11]:

1. Kompaniyalar zaiflikni kamaytirish uchun yagona yetkazib beruvchilarga tayanishni qayta ko'rib chiqayotgan bir paytda ularni turlarga ajratish va qayta tashkil etish;
2. Samaradorlikni oshirish uchun mijozlar, sotuvchilar va hamkorlar o'rtasida shaffoflikni oshirish uchun sun'iy intellekt (AI) kabi ilg'or texnologiyalarni qo'llash;
3. Yangi ta'minot zanjiri talablariga javob berish uchun global ishchi kuchini oshirish va qayta tayyorlash;
4. Barqarorlik, ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik sohasidagi rivojlanayotgan tartibga solish va muvofiqlik talablarini faol ravishda boshqarish;
5. Kengroq hamkorlik orqali mijozlarning yaxshiroq ishlash, ko'proq chidamlilik va barqarorlik haqidagi kutilmalarini bir vaqtning o'zida qondirish.

Mazkur yo‘nalishlarni batafsil izohlaydigan bo‘lsak, har bir yo‘nalish ma’lum hisob-kitoblarga hamda ko‘rsatkichlarga asoslanganligini qayd etish lozim (2-jadval).

2-jadval

Global qiymat zanjirining keyingi avlodini shakllantiruvchi asosiy yo‘nalishlar [12]

№	Rivojlanish yo‘nalishi	Asosiy mazmuni	Joriy holat (2025-yil)	Kelajakdagi kutilmalar
1	Global qiymat zanjiridan ko‘p hududli (multi-local) qiymat zanjirlariga o‘tish	Ishlab chiqarishni mintaqalashtirish va xatarlarni kamaytirish	Faqat 28% kompaniya 2030-yilgacha to‘liq mintaqaviy faoliyatga o‘tishni rejalashtirgan	92% kompaniya ishlab chiqarishni hududiyalashtirmoqda
2	Raqamli jarayonlardan to‘liq raqamli tizimga o‘tish	Sun‘iy intellekt va ilg‘or texnologiyalar orqali shaffoflikni oshirish	Atigi 1% kompaniya qo‘lda yuritiladigan jadval tizimidan voz kechgan	64% kompaniya AI yechimlarini asosiy omil deb hisoblaydi
3	Miqyos samaradorligidan malaka samaradorligiga o‘tish	Kadrlar malakasini oshirish va bilimlarni rivojlantirish	Faqat 23% ishchi kuchi 2030-yilgacha yetarli ko‘nikmaga ega bo‘lishi kutilmoqda	60% ishchi kuchi qo‘shimcha tayyorgarlikka muhtoj
4	Me‘yoriy talabdan innovatsion barqarorlikka o‘tish	Ta‘minot zanjirida ekologik barqarorlikni ta‘minlash	14% kompaniya CO ₂ chiqindilarini kamaytirish uchun tarmoqni qayta loyihalamoqda	45% barqarorlikni asosiy omil sifatida baholaydi
5	Xarajatga asoslangan faoliyatdan mijoz qiymatiga yo‘naltirilgan faoliyatga o‘tish	Mijoz ehtiyojlari va barqarorlikni birlashtirish	15% kompaniya samaradorlik va barqarorlikni bir vaqtda kuchaytirgan	60% kompaniya mijoz qiymatini ustuvor deb biladi

2-jadvalda global qiymat zanjirlarining keyingi avlodini shakllantiruvchi asosiy yo‘nalishlar, ularning mazmuni hamda joriy holati va kelajakdagi kutilmalari tizimli ravishda aks ettirilgan. Jadvaldan ko‘rinadiki, global qiymat zanjirlaridan ko‘p hududli qiymat zanjirlariga o‘tish jarayoni hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, kompaniyalarning aksariyati ishlab chiqarishni hududiyalashtirishga intilmoqda. Xususan, hozirgi kunda faqat 28 foiz kompaniya to‘liq mintaqaviy faoliyatga o‘tishni rejalashtirgan bo‘lsa, kelajakda bu ko‘rsatkich 92 foizga yetishi kutilmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonida ham sezilarli tafovut mavjud bo‘lib, kompaniyalarning juda kam qismi an‘anaviy qo‘lda yuritiladigan tizimlardan voz kechgan. Shu bilan birga, korxonalarning 64 foizi sun‘iy intellektni ta‘minot zanjirini rivojlantirishning muhim omili sifatida baholamoqda. Miqyos

samaradorligidan malaka samaradorligiga o'tish jarayonida ham muammolar saqlanib qolmoqda, chunki ishchi kuchining faqat kichik qismi kelajak talablarga mos ko'nikmalarga ega bo'lishi kutilmoqda. Biroq, xodimlarning 60 foizdan ortig'i qo'shimcha tayyorgarlikka muhtojligi tan olinayotgani ushbu sohada islohotlar zarurligini ko'rsatadi. Ekologik barqarorlik yo'nalishida ham kutilmalar bilan real holat o'rtasida katta tafovut mavjud bo'lib, kompaniyalarning oz qismi ishlab chiqarish tarmoqlarini qayta loyihalamoqda. Shunga qaramay, barqarorlikni asosiy strategik omil sifatida baholovchi kompaniyalar ulushi tobora ortib bormoqda. Xarajatga asoslangan faoliyatdan mijoz qiymatiga yo'naltirilgan modelga o'tish jarayoni ham sekin kechayotgan bo'lsa-da, kelajakda bu yo'nalish ustuvor ahamiyat kasb etishi kutilmoqda.

Xulosa

Mazkur maqolada qo'shilgan qiymat zanjiri va mazkur jarayonda xorijiy investitsiyalarning rolini tadqiq qilish asosida quyidagilarni qayd etish mumkin:

Birinchidan, xorijiy investitsiyalarning ishlab chiqarish jarayonlariga faol jalb etilishi mamlakatdagi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, savdo oqimlarining barqarorligini ta'minlash orqali investitsion muhitni yanada jozibador holga keltiradi hamda uzoq muddatli kapital oqimini rag'batlantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi;

Ikkinchidan, global qo'shilgan qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv jarayonida yetakchi kompaniyalarning mahalliy bozorga kirib kelishi "ommaviy ergashish" effektini yuzaga keltirib, boshqa xorijiy va mahalliy korxonalarni ham mazkur hududda faoliyat yuritishga undaydi, bu esa sanoat klasterlari shakllanishiga zamin yaratadi;

Uchinchidan, xorijiy investitsiyalar orqali ilg'or texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv usullari va innovatsion tajribaning mamlakat ichida keng tarqalishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, milliy korxonalarning global bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi;

To'rtinchidan, global qiymat zanjirlarida ishtirok etish jarayonining chuqurlashuvi mamlakatda bandlik darajasining oshishi, malakali kadrlar tayyorlash tizimining rivojlanishi va mehnat unumdorligining yuksalishi orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

Beshinchidan, xorijiy investitsiyalarni global qo'shilgan qiymat zanjirlari bilan uyg'un holda rivojlantirishga qaratilgan strategik siyosat mamlakat iqtisodiyotida barqaror o'sish, innovatsion rivojlanish va xalqaro integratsiyaning chuqurlashuvini ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Christine Li. The rise of value-add investments in Asia-Pacific real estate. // Knight Frank Asia Pacific Pte Ltd., January 23, 2025. <https://apac.knightfrank.com/horizon/content/the-rise-of-value-add-investments>
2. Bernard Hoekman. Adding Value. // Finance & Development, IMF, Vol. 50, No. 4, December 2013. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/2013/12/hoekman.htm>
3. Vito Amendolagine, Andrea F. Presbitero, Roberta Rabellotti, Marco Sanfilippo, Adnan Seric. FDI, Global Value Chains, and Local Sourcing in Developing Countries. // IMF Working Papers, 2017. – P. 4.
4. Mano, M. M., Tita, A. F., & A. Obalade, A.. Value-adding effect of foreign direct investment inflow on manufacturing: evidence from South Africa. // Cogent Economics and Finance, 13(1), 2025. <https://doi.org/10.1080/23322039.2025.2468888>
5. Massimo Del Gatto, Henrique Estides Delgado. FDI, Imports and Foreign Value Added: a sectoral perspective. January 23, 2025. <https://ssrn.com/abstract=5116830>
6. Mirzakhmedov, J. (2026). THE ROLE OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT IN INCREASING SERVICE EXPORTS OF UZBEKISTAN. Innovation Science and Technology, 2(1). <https://doi.org/10.5281/zenodo.18208530>
7. Вахабов Абдурахим Васикович COVID-19 ПАНДЕМИЯСИНИНГ ГЛОБАЛ ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ ЗАНЖИРИГА ТАЪСИРИ // Экономика и финансы (Узбекистан). 2022. №1 (149). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/covid-19-pandemiyasining-global-shilgan-ymat-zanzhiriga-tasiri> (дата обращения: 17.02.2026).
8. Norimov, I. Foreign direct investment (FDI) and export growth: Catalysts for economic advancement in Uzbekistan, 2025. <https://doi.org/10.61796/ijblps.v1i6.163>
9. Foreign Direct Investment and Global Value Chains // The World bank Group, 2021.
10. <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/c9af0143184de77cb58ddd5adf024508-0350012021/original/Chapter-1-An-Investment-Perspective-on-Global-Value-Chains.pdf> asosida muallif tomonidan shakllantirilgan
11. A Global Rewiring: Redefining Global Value Chains for the Future, January, 2023. – P. 6.
12. <https://www.weforum.org/stories/2024/01/trends-global-value-chains/> - Jahon Iqtisodiy Forumi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan